

KAPITAL BOZORIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ibragimov Gafurjan Axmetovich

Qoraqalpaq davlat universiteti

mustaqil doktoranti

gibragimovga@gmail.com

Annotatsiya. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatida ishtirok etish bank daromadining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotimizda tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘llarini takomillashtirish haqida o‘z boradi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investor, portfel investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, aksiya, korporativ qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar, tijorat banklari, moliyalashtirish usullari

Аннотация. Участие коммерческих банков в инвестиционной деятельности на рынке ценных бумаг является одним из важных источников доходов банков. В данной статье говорится о совершенствовании путей развития инвестиционной деятельности коммерческих банков на фондовом рынке в нашей национальной экономике. Также представлены авторские подходы и предложения по их устранению, а также существующие проблемы в перспективах развития привлечения инвестиций в Республике Узбекистан

Ключевые слова: инвестор, портфельное инвестирование, ценные бумаги, акции, корпоративные ценные бумаги, облигации, коммерческие банки, методы финансирования

Abstract. The participation of commercial banks in investment activities in the securities market is one of the important sources of income for banks. This article talks about improving the ways of developing the investment activities of commercial banks in the stock market in our national economy. The author’s approaches and proposals for eliminating them, as well as existing problems in the prospects for the development of attracting investments in the Republic of Uzbekistan are also presented.

Keywords: investor, portfolio investment, securities, shares, corporate securities, bonds, commercial banks, financing methods

KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiyalarni keng ko‘lamda eng foydali tarzda joylashtirish yangi mijozlarni jalb qilish sohasidagi raqobat kurashi kuchayadi. Sog‘lom raqobat kurashida faol qatnashish uchun tijorat banklari o‘z faoliyatlarini takomillashtirishi, shu

jumladan, qimmatli qog'ozlar bozorida faol investitsiya siyosatini olib borishlari lozim. Investitsiya faoliyati tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish, muayyan daromad olish, bank likvidligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya faoliyatining xususiyatlari, uning tashkiliy-iqtisodiy masalalari iqtisodiy jihatdan yetarli darajada tahlil qilishga qaramasdan, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya faoliyatini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llari borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda tadqiq etilgan. Xususan, xorijlik iqtisodchilar Yu.Morozkin va Ye.Svistunovalarning fikriga ko'ra, fond bozori konyunkturasi dinamik o'zgarishi sharoitida optimal qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish har doim ham yetarli bo'lavermaydi. Bunday sharoitda tijorat bankiga qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishning takomillashgan strategiyasini shakllantirish zarur bo'ladi. Boshqaruv fond bozorida holatlar to'g'risida xulosalar shakllantirish imkonini beradigan u yoki bu omillarni monitoring qilish asosida qimmatli qog'ozlar portfeliga tuzatish kiritish imkonini beradi. Bu esa investitsiyalash strategiyasi va portfelning tarkibi bo'yicha zamonaviy va aniq qarorlarni qabul qilish uchun imkoniyat yaratadi[1].

Banklar investor sifatida quyidagi faoliyatni amalga oshiradilar: qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish, sotib olingan qimmatli qog'ozlar bilan garovga qo'yilgan kreditlarni joylashtirish, foizlar, dividendlar va qimmatli qog'ozlarni qaytarish uchun to'lanadigan summalarni olish, emitent aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish, bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishda kreditor yoki aksiyador sifatida ishtirok etish, keyinchalik qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar va moliyaviy aktivlarga boshqa investitsiyalar bilan banklarning aksiyalarini sotib olish[2].

E.V. Yakutining fikricha investitsiya munosabatlarining asosiy ishtirokchisi bo'lgan bank turli xil vositalardan foydalangan holda aholining katta miqdordagi pul mablag'larini to'playdi, so'ngra reproduktiv jarayonni va umuman mamlakat iqtisodiyotining o'sishini shakllantirish uchun ularni investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilariga yo'naltiradi[3].

A.V. Zverev, V.V. Mandron, M.Yu. Mishinalarning ta'kidlashicha "Moliya institutlarining investitsiya siyosati investitsiya faoliyatining asosiy maqsadlarini shakllantirishni, shuningdek ularga erishishning eng samarali usullarini tanlashni o'z ichiga oladi. Investitsiya faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayoni – bu investitsiya aktivlarining maqbul xavf darajasida rentabelligini oshirishga yordam beradigan

chora-tadbirlar majmuyidir. Strategik va taktik boshqaruv jarayonlari bank investitsiya siyosatining asosiy elementlari hisoblanadi"[4].

B.A. Rayzbergga ko'ra tijorat banklari investitsiyalari deganda uzoq vaqt davomida yetarlicha foydali qimmatli qog'ozlarning bank resurslariga qo'shgan hissasi, shuningdek ularni taqsimlash va qo'shimcha foyda olishga olib keladigan bilvosita iqtisodiy investitsiyalar tushuniladi[5].

L.L. Igonina esa bankning investitsiya faoliyatini hisobga olgan holda (xo'jalik yurituvchi subyekt nuqtayi nazaridan), bu bank moliyaviy aktivlarni yaratish va sotib olish yoki foyda olish uchun moliyaviy aktivlarni sotib olish uchun o'z resurslarini ma'lum bir bozorga vaqtincha investitsiya qiluvchi investor sifatida harakat qiladigan jarayon deb ta'kidlash mumkin. Kapital, aholi jamg'armalari va boshqa mavjud mablag'larni jalb qilish orqali banklar kelajakda ulardan foydali foydalanish uchun o'z resurslarini shakllantiradilar[6].

Mahalliy iqtisodchi olim O.A. Haydarov esa "aksariyat tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy hisobotlariga yetarli darajada e'tibor berilmasligi, soliq idoralariga taqdim etiladigan rasmiy hisobotlarida esa aksariyat holatda haqiqiy moliyaviy holatni ko'rsatmasligiga sabab bo'lmoqda. Tijorat banklari ham o'z navbatida bunday hisobotlarga ishonch bildirmaydi va bu esa ko'plab tadbirkorlarni investitsiyalash imkoniyatining cheklanishiga olib keladi"[7] deya ta'kidlab o'tgan.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsion faoliyati xilma-xil bo'lishi mumkin va har bir bankning strategiyasiga bog'liq. Tijorat banklari aksiyalar, obligatsiyalar, aksiyalar vositalari, derivativlar va boshqalar kabi turli xil qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritishlari mumkin. Ularning maqsadi qimmatli qog'ozlar, dividendlar yoki obligatsiyalar bo'yicha foizlarni sotib olish va sotishdan daromad olish, shuningdek, xavflarni kamaytirish va portfelni diversifikatsiya qilish lozim. Tijorat banklarining investitsiya faoliyati mijozlar uchun qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish, investitsiya bo'yicha maslahatlar berish va qimmatli qog'ozlar bozorida turli moliyaviy operatsiyalarda ishtirok etishni ham o'z ichiga olishi mumkin. Umuman olganda, tijorat banklari investitsiya sohasida muhim rol o'ynaydi va qimmatli qog'ozlar bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga zamin yaratadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy mamlakatlarda milliy iqtisodiyotimizda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsion faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining investitsion faoliyati qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar, qarz vositalari) sotib olish, korporativ mijozlarga kreditlar va kreditlar berish, ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalarda ishtirok etish, loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etish, moliya bozorlarida operatsiyalarni o'tkazish (qimmatli qog'ozlar, derivativlar savdosi) kabi turli xil investitsiyalarni o'z ichiga oladi. O'sish portfeli – bu joriy davrda investitsiya foydasini shakllantirish darajasidan qat'i nazar, uzoq muddatli istiqbolda investitsiya qilingan kapitalning o'sish sur'atlarini maksimal darajada oshirishga qaratilgan investitsiya portfelidir.

Tijorat banklari tomonidan portfel investitsiyalari jarayoni amalga oshirish odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Bozor tahlili va investitsiya strategiyasini tanlash: tijorat banklari o'zlarining maqsadlari va tavakkalchilik profiliga javob beradigan maqbul investitsiya strategiyasini tanlash uchun bozor tadqiqotlarini o'tkazadilar va mavjud tendensiyalarni tahlil qiladilar.

2. Investitsiya imkoniyatlarini qidirish: tanlangan strategiya asosida bank qimmatli qog'ozlar, aksiyalar paketlari, ko'chmas mulkka yoki boshqa aktivlarga investitsiyalar kabi tegishli investitsiya imkoniyatlarini qidirishni boshlaydi.

3. Xavf va rentabellikni baholash: bank har bir investitsiya imkoniyatining xatarlari va potensial rentabelligini bankning investitsiya siyosati nuqtayi nazaridan maqbulligini aniqlash uchun baholaydi.

4. Investitsion qarorlarni qabul qilish: tahlil natijalariga ko'ra, bank o'zining investitsiya strategiyasi va tavakkalchilik profilini hisobga olgan holda ma'lum aktivlarga sarmoya kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi.

5. Investitsiyalarni boshqarish: keyinchalik bank o'zining investitsiya portfelini boshqaradi, shu jumladan, o'zgaruvchan bozor sharoitlariga muvofiq aktivlarni monitoring qilish va qayta muvozanatlashga xizmat qiladi.

6. Hisobot: tijorat banklari o'zlarining investitsiya operatsiyalari bo'yicha hisobotlarni, shu jumladan, moliyaviy hisobotlarni, portfel deklaratsiyalarini va boshqa tegishli ma'lumotlarni ichki va tashqi manfaatdor tomonlarga, shu jumladan, tartibga soluvchilar va aksiyadorlarga taqdim etishlari shart.

Portfel investitsiya jarayonini amalga oshirishga 1-jadvalda keltirilgan omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular tijorat banklari tomonidan ushbu faoliyat turini amalga oshirish uchun xavf omillari sifatida talqin qilinishi mumkin.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatining barcha turlarini 4 turga bo'lish mumkin: emitent sifatidagi faoliyat, investor sifatidagi faoliyat, professional ishtirokchilar sifatidagi faoliyat va qimmatli qog'ozlar bozoriga xizmat ko'rsatish uchun faqat bank operatsiyalarini amalga oshirish.

Har bir turga ma'lum operatsiyalar kiradi, masalan, bankning investor sifatida faoliyati qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan kreditlarni jalb qilish va hokazolar bo'yicha operatsiyalarga bo'linadi.

1-jadval

Tijorat banklari portfel investitsiyalaridagi spekulativ xavf omillari¹

Ijobiy omillar	Salbiy omillar
1. Qulay makroiqtisodiy iqlim va o'rtacha iqtisodiy o'sish 2. Moliyaviy aktivlarning yetarli sifati 3. Bank biznesining o'sib borayotgan diversifikatsiyasi 4. Boshqaruvning professionalligi va sifatini oshirish 5. Xalqaro bank standartlarini tizimli joriy etish	1. Moliyaviy investitsiyalar sohasida zaif banklarni tartibga solish va nazorat qilish 2. Iqtisodiyotda xom ashyo sanoatining sezilarli ustunligi 3. Yuqori xavfli operatsiyalar 4. Aktivlarning tez o'sishi tufayli bank kapitaliga yuqori yuklamalar tushishi 5. Jahon iqtisodiyotining rivojlanish dinamikasiga bog'liqligi

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda so'nggi yillarda mamlakatimizda jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 3,8 foiz punktga kamayib, 15,4 foizni yoki 41,5 trln. so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 84,6 foiz investitsiyalari o'zlashtirilib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 3,8 foiz punktga ko'paygan. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasida, ya'ni hududdagi jami investitsiyalarning 12,7 foizini, Surxondaryo viloyatida esa 12,1 foiz va Jizzax viloyatida 9,7 foiz miqdorida kuzatildi. Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar bo'yicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning 52,1 foizini tashkil etdi. Shuningdek, Toshkent viloyatida 39,3 foiz va Navoiy viloyatida 30,7 foizni tashkil etdi. Jalb qilingan moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar alohida o'ringa ega.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida kuzatilib, mos ravishda 77,5 va 56,8 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, investitsiya portfeli – bu daromad keltiradigan vositalar to'plamidir. Ular risk darajasi, foyda va investitsiyalar muddati bo'yicha farqlanishi mumkin. Tegishli aktivlar to'plamini tanlab, investor o'zining portfel strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin.

¹ Muallif ishlanmasi

Davlat tomonidan tartibga solish investitsiya siyosati va yo'nalishlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Davlat banklarning investitsiya faoliyatiga litsenziyalash, qimmatli qog'ozlarni chiqarish qoidalarini belgilash va qimmatli qog'ozlar emitentlari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyatini kiritish orqali ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, har qanday investor o'z faoliyati davomida davlat himoyasiga ishonadi. Shunday qilib, davlat bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligini ta'minlaydi va investorlar tomonidan unga ma'lum darajada ishonchni saqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy moliya bozori sharoitida tijorat banklari tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar (foizlar, dividendlar) bo'yicha to'lovlar shaklida daromad olishga qaratilgan passiv investitsiya strategiyalari ham, moliyaviy vositani sotish narxi va sotib olish narxi o'rtasidagi kurs farqi ko'rinishidagi foydani o'z ichiga olgan agressiv investitsiya amaliyotlarini ham amalga oshirishlari mumkin.

Jahon moliya bozorining yuqori harakatchanligi, o'zgaruvchanligi bir savdo kuni ichida qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha spekulativ daromad olish, mablag'larni investitsiya qilish vaqtini minimallashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli va muddatsiz moliyaviy investitsiyalar ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda, moliyaviy investitsiyalar yangi sifatga ega bo'ladi - kapital qo'yilmalar nuqtayi nazaridan ko'p qirrali. Bugungi kunda yirik banklar ham investitsiya portfelini shakllantirishda konservativ siyosatga amal qilishadi, chunki bozorda katta xavflar mavjud va ular investitsiyalar hajmining oshishi bilan ortadi. Xatarlarning ushbu o'sishini qoplash uchun banklar faqat ishonchli emitentlarning qimmatli qog'ozlari va davlat qimmatli qog'ozlariga sarmoya kiritishga harakat qilishadi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faollik darajasi uning hajmiga va investitsiya qimmatli qog'ozlarini faol boshqarish qobiliyatiga bog'liq, chunki korporativ qimmatli qog'ozlar ularni sotib olishning maqsadga muvofiqligini baholash eng qiyin hisoblanadi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyati ko'plab ahamiyatli vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi, ular bo'yicha qarorlar siyosiy va iqtisodiy sharoitlar asosida intuitiv ravishda qabul qilinadi, chunki investitsiya qarorlarini belgilashda aniq qoidalar mavjud emas va mavjud vaziyatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarining investitsiya portfelini shakllantirish nisbatan yangi tushuncha bo'lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozori kapitalni jalb qilishning muhim institutsional shakliga aylanishi mumkin, bu esa rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiya portfelining zarur tavakkalchilik va rentabellik koeffitsiyentini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining investitsiya portfelini shakllantirishda banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini tahlil qilish hamda shakllanayotgan qimmatli

qogʻozlar portfelining oʻziga xos xususiyatlarini baholash, diversifikatsiya darajasi va rentabellik darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Морозкин Ю.Н, Свистунова Е.С. Управление портфелем ценных бумаг в коммерческом банке//Вестник Челябинского государственного университета. – Челябинск, 2011. – №6. – С. 138.
2. Боровкова В. А., Боровкова В. А. Рынок ценных бумаг: Учебное пособие. 2-е изд., обновленное и дополненное. – " Издательский дом " Питер", 2021.
4. Якутина Э.В. Инвестиции в банковской деятельности // Economics. – 2017. – № 5 (26). – С. 59-62.
5. Зверев А.В., Мандрон В.В., Мишина М.Ю. Инвестиционная деятельность и инвестиционная политика банковского сектора РФ // Вестник БГУ. – 2018. – №3 (37). –
6. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева; 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 512 с
7. Игонина Л. Л. Инвестиции. – М.: Магистр, 2014. – 752 с.